

BOSHLANG'ICH SINIF O'QUVCHILARIDA MEDIA MADANIYATINI
SHAKLLANTIRISH METODOLOGIYASI

Abrorxonova Kamolaxon Abrorxon qizi

Boshlang'ich ta'lim pedagogikasi kafedrası mudiri, pedagogika bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
kabrorxonovna@mail.ru. Tel: +998933052904

Bo'riyeva Shaxnoza Inat qizi

Nizomiy nomidagi TDPU talabasi
buriyevashaxnoza076@gmail.com Tel: +998993784636

Annotatsiya: Ushbu maqolada boshlang'ich sinf o'quvchilarining axborot iste'moli madaniyatini rivojlantirishning ayrim metodik masalalari ko'rsatilgan. Shuningdek boshlang'ich sinf o'quvchilarida mediamadaniyatni rivojlantirishning nazariy metodologik masalalari o'rganilgan.

Ijtimoiy tarmoqlar bugun qudratli axborot qurolga aylangan ekan, dunyo miqyosida mafkuraviy-g'oyaviy tahdidlarni targ'ibot va tashviqot etishda muhim omil vazifasini o'tamoqda. Ijtimoiy tarmoqlar yordamida yoshlarning qalbi, ongi va ruhiyatiga ta'sir ko'rsatishga alohida e'tibor qaratilmoqda. Buning natijasida yoshlar ma'naviyati izdan chiqishiga olib kelmoqda. Shu boisdan ham, turli-tuman g'oyaviy, mafkuraviy va axborot xurujlarining avj olishini e'tibordan chetda qoldirmasligimiz darkor. Shundagina biz istiqbolda ma'naviy barkamol insonni, sog'lom avlodni tarbiyalashga erishamiz.

Kalit so'zlar: Axborot, global, mafkura, internet, ma'naviy tahdid, ijtimoiy tarmoq, virtual muloqot, modernizatsiya, ma'naviyat, innovatsiya.

Kirish. Innovatsion va axborot texnologiyalarini ta'lim jarayoniga tadbiiq qilishni zamonaviy axborot dunyosini rivojlantirishidagi mantiqiy va zaruriy qadam deb xarakterlash mumkin. Global axborotlashuv sharoitida katta hajmdagi axborotga egalik o'quvchilarga ta'lim berish jarayonini qiyinlashtiradi. Bu qiyinchiliklar shu bilan bog'liqki, birinchidan, yosh avlod katta hajmdagi „axborot maydoni“ rang-barang ma'lumotlarga duch keladi. Yosh xususiyatiga ko'ra voyaga yetguncha, ma'lum dunyoqarashga ega bo'lgunga qadar yosh o'quvchi uchun mavjud axborotlarning barchasi qiziqarli hisoblanadi. So'nggi yillarda medianing rivojlanishi va jamiyatni ekspansiya qilib olishi natijasida turli mafkuraviy tahdidlar kuchaydi. Mafkuraviy tahdid mediatahdidga aylandi. O'quvchilarning mediamadaniyatini shakllantirish ularni ijtimoiy tarmoqlardan to'g'ri va asosli foydalanishni anglatish bugungi kunning pedagogik muammosi hisoblanadi.

Adabiyotlar tahlili va metodologiya

Bugun yurtimizda ommaviy axborot vositalarining jamiyat hayotida tutgan o'rni tobora ortib bormoqda. Globallashuvning insoniyat, jumladan yoshlar hayotiga ta'siri juda kuchli bo'lib, o'z navbatida ularning globallashuvning kelib chiqishi mumkin bo'lgan salbiy oqibatlarining oldini olish uchun mafkuraviy immunitet shakllantirish asosiy maqsadlardan biri bo'lib mazkur sohaga oid ilmiy tadqiqot va asarlar yaratgan olimlarning ilmiy xulosalaridan foydalanildi. Jumladan: I.V.Malon, I.X. Fushs L. Masterman o'zbekistonlik

olimlardan M.Quronov kabilar zamonaviy axborot texnologiyalari va ularning tasnifiga oid tadqiqot natijalari soha mutaxassislarining asarlari asosiy manba sifatida olindi.

Har qanday tirik organizmning o'ziga xos xususiyati shundaki, atrof-muhit bilan o'zaro aloqada bo'lib, atrofdagi dunyodan ma'lumot oladilar va undan ma'lum maqsadlarda foydalanadilar, Shuning uchun axborot nazariyasida barcha xilma-xil shakllarni elementar-ma'lumot aylanmasiga bo'lish odatiy holdir. Ijtimoiy ma'lumotlar hilma-xildir. Inson o'z idrokini o'zida aks ettiradigan, ochib beradigan, ijtimoiy ma'lumotga aylantiradigan tabiiy ma'lumotlardan tashqari, atrofdagi hamma narsa bilan o'zaro aloqada bo'lgan tafakkur qiluvchi mavjudot sifatida uni o'zi ishlab chiqaradi - uning hajmini to'ldiradi. Axborot olish madaniyati, ya'ni axborot savodxonligi bo'yicha xorijiy mamlakatlarga nazar solinsa, kutubxonalar uyushmasida axborot savodxonligi masalasiga alohida e'tibor qaratiladi. Umumiy o'rta ta'lim maktablarida o'quvchilarning mediamadaniyatini shakllantirish bugungi kunning muhim muammosi hisoblanadi. XXI asr yoshlari o'z navbatida shuning ichida katta bo'lmoqda va shu sababli ularning hayotini media dunyo, yoki virtual olamsiz tasavvur qilish qiyin. Shuning uchun bugungi kun pedagogikasida ularni media va virtuellikdan cheklash emas balki undan to'g'ri foydalanish xususiyatini shakllantirishga e'tibor qaratmoqda. Jahon ta'lim berish tizimiga nazar solsak, Avstriyada mediata'lim sohasida dars ishlanmalar tayyorlanib 1973- yildan buyon boshlang'ich va o'rta maktablarda majburiy fan sifatida o'qitiladi. Germaniya o'qitish tizimida mediapedagogika(mediatarbiya, medididaktika, mediatadqiqot) mustahkam o'rin olgan. Shuningdek Finlandiya, Norvegiya, Shvetsiya, Yevropa va Amerikaning barcha mamlakatlarida XX asrning 80-yillardan boshlab mediata'lim milliy o'quv reja sifatida kiritildi. O'zbekistonda ham mediapedagogika, mediata'lim rivojlanishiga e'tibor berilmoqda. Xalq ta'limi vazirligi huzurida 2006- yilda umumta'lim multimedia dasturlarini joriy etish va rivojlantirish markazi tashkil etildi. Ushbu markaz respublika miqyosida mediamadaniyat mediata'lim tizimini rivojlantirishga o'z hissasini qo'shdi. Ta'lim tizimini modernizatsiyalashda ta'limning barcha bo'g'inlarida tobora faol qo'llanilayotgan ilg'or pedagogik texnologiyalarning turli yo'nalishi o'quvchilarning ma'naviy kuchi, qobiliyatlarini ochish uchun maqbul sharoit yaratib bermoqda.

Muhokama va natijalar:

Butun dunyoda bo'lgani kabi mamlakatimizda ham ta'lim sohasiga zamonaviy qarash va texnologiyalarning keng jalb qilinishi rivojlanib bormoqda. Bu esa o'z navbatida ta'lim sohasida ham axborot iste'moli xususiyatlarini ilmiy tadqiq qilish va uning yoshlarga ta'sirini har tomonlama chuqur tahlil qilingan xulosalar shakllantirishni talab etmoqda. Aynan malakatimizda ham axborot olami aynan internet va kommunikatsiya sohasi texnologiyalaridan foydalanish ko'lami ham kun sayin oshib borib, kundalik zaruriy ehtiyoj sirasiga kirib bormoqda. O'zbekistonda ta'lim sohasida mediamadaniyatni shakllantirishga doir turli chora- tadbirlar amalga oshirilmoqda. Jumladan, Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyev 2017-yil 7-fevralda, „O'zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo'yicha Harakatlar strategiyasi“ to'g'risidagi farmonida „ Uzliksiz ta'lim tizimini yanada takomillashtirish, sifatli ta'lim tizimini xizmatlari, imkoniyatlarini oshirish, maqsadida dars jarayonida mediamahsulotlardan erkin foydalanish yo'lga qo'yilishini kerakligi ma'lum qilindi. Dars mavzusiga oid multemidiya, animatsiya, grafika, diafilm va vidiofilmlardan

foydalanish dars jarayonini yanada qiziqarli bo'lishiga ko'mak beradi. O'quv mashg'ulotlari davomida pedagogik jarayon o'z navbatida, o'qituvchi darsni zamonaviy tashkil etishi, takomillashtirishi o'quvchilarni mustaqil fikrlashga, axborotlarni to'g'ri va asosli qidirib ularni tahlil qilishi o'quvchilarni fikrlashga va muammoli vaziyatlardan chiqishga asosiysi xulosa qilishni o'rgatadi. Axborot kommunikatsiya texnologiyalaridan foydalanish o'quvchilarning nazariy, ijodiy va refleksiv tafakkuri rivojlanishiga katta ta'sir etadi. Shuningdek, o'quvchilar sifatli ta'limni va bir qatorda mediamadaniyatni ham rivojlantirishlari muhim hisoblanadi. Mediata'lim orqali ma'lum fanlarni o'qitishning dunyodagi eng yaxshi dars namunalari, tayyor kurslar dasturlarini internet tarmog'i orqali o'rganish mumkin. Bu har qanday o'quvchining o'z ustida ishlab, o'zi qiziqgan sohani mukammal o'rganishga imkoniyatdir. Mediata'lim orqali dunyo kutubxonolari fondlari, axborot ma'lumotlar bazalari, eksperimental jihozlar va etakchi laboratoriya va institutlarning ilmiy natijalarining haqiqiy bitmas-tuganmas resurslariga masofadan kirish imkoniyati yuzaga keladi. Bu dunyo bolalarining deyarli bir xil imkoniyatga egaligini ham ko'rsatib beradi. Mediata'lim jarayonida o'quvchilarda mediasavodxonlikka urg'u beriladi. Ta'lim jarayoni samaradorligini oshirishga ta'lim ehtiyojini shakllantirishga xizmat qiluvchi asosiy vositalardan biri axborot kommunikatsion texnologiyalari o'zining ko'plab qulay jihatlari bilan muhim ahamiyatga ega. Umuman olganda, har qanday ko'rgazmali vosita berilgan bilimning o'quvchi ongida to'liq aks etishi, tasavvurlarini paydo qilishi, xotirasida uzoq vaqt qolishiga sabab bo'ladi.

Xulosa o'rnida shuni aytish mumkinki, bugungi kun yoshlari taraqqiy etgan texnologiyalar olamida cheksiz takliflar chegarasida mavjuddir. Ularning axborot sintez xususiyati mavjudlik darajasiga ko'ra axborotdan foydalanish doirasini belgilaydi. Mazkur tanlov ularning hayotiga ta'sir o'tkazishidan tashqari jamiyat hayotiga ham ta'sirini o'tkazadi. Jahon bo'ylab jadal tus olayotgan axborot asrining globallashuv jarayoniga xos bo'lgan g'oyalar kurashi, axborot xuruji avj olgan bir davrda mamlakatimizda o'sib kelayotgan avlod, yoshlarni barkamol shaxs sifatida tarbiyalash yanada dolzarb hamda muhim masala bo'lib hisoblanadi. Mazkur masalani hal etishda o'quvchilarning ma'naviy-axloqiy tarbiyasiga alohida e'tibor qaratilishi lozim deb o'ylayman so'z o'rnida shuni ta'kidlash joizki, "Ogohlik davr talabi". O'quvchi yoshlarni ogohlikga chqirish har bir pedagogning burchi hisoblanadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. O'zbekiston Respublikasi „Ommaviy axborot vositalari to'g'risida”gi qonun _2018 yangi tahrir
2. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev 2017-yil 7 fevralda „O'zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo'yicha Harakatlar strategiyasi” to'g'risidagi farmonida_2017 PF-4947sonli
3. Axborot texnologiyalari _ Samarqand 2020 Aminov.I.B Bustonov.X,A
4. Axborot texnologiyalari o'quv jarayoniga kiritish,„boshlang'ich maktab jurnali” Zaxarova N.I

5. Ijodkor o'qituvchi ilmiy uslubiy jurnal _2022 yil 17 son Maqsudov U.
6. O'quvchi yoshlarda axborot iste'moli madaniyatini rivojlantirish texnologiyasi _2016 Toshkent.
7. Ziyouz. Com kutubxonasi
8. Mediata'lim va media madaniyat:nazariyasi va amaliyot 2019
9. Boshlang'ich ta'lim sifatini oshirishda zamonaviy pedagogic va axborot texnologiyalaridan qo'llash_ toshket2017 M.Inoyatova
10. Umumiy o'rta ta'lim maktablarida modulli o'qitish jarayonlarini texnologik ta'minlashning nazariy metodologik asoslari_ G'.G'ulom2016
11. Internetdagi tahdidlardan himoya _2020
12. Ta'limda axborot texnologiyalari_ toshkent 2010.
13. Boshlang'ichta'lim pedagogikasi innovatsiya va integratsiya_ Toshkent2021
14. O'zbek tilining izohli lug'ati_ Targ'ibot 5jildli
15. O'zbekiston milliy insiklopediyasi _davlat milliy nashriyoti2002
16. Texnik aloqa vositalari orqali olib borilgan suhbatlar_ o'quv qo'llanma _2014.
17. Шавкат Мирзиёев. Тошкентда бўлиб ўтган "Ижтимоий барқарорликни таъминлаш, муқаддас динимизнинг софлигини асраш – давр талаби" мавзuidaги анжуманда сўзлаган нутқи. 15.06.2017 йил. Тошкент.
18. Медиа ва ахборот саводхонлигини шакллантиришнинг педагогик жиҳатлари. Ўқув-амалий қўлланма. - Т.: Extremum-press, 2017.
19. Pedagogika (pedagogika nazariyasi va tarixi): O'qituvchilar tayyorlash va pedagogika fani ta'lim sohasi bakalavriat yo'nalishi uchun darslik/ M.X. Toxtaxodjayeva, S. Nishonova, J. Hasanboyev, M. Usmonboyeva, S. Madiyarova, A. Qoldibekova, N. Nishonova, N. Sayidahmedov; O'zbekiston Respublikasi Oliy va o'rta-maxsus ta'lim vazirligi. — Toshkent: «O'zbekiston faylasuflari milliy jamiyati» nashriyoti, 2010.
20. Ўқувчи-ёшларда ахборот истеъмоли маданиятини ривожлантириш технологияси / Б.Ходжаев, М.Махмудова – Тошкент: «Tafakkur qanoti», 2016. Очик ахборот тизимларида ахборот- психологик хавфсизлик: ўқув қўлланма Умаров Б., Ахмедова М. Ўзбекистон Республикаси Олий ва ўрта махсус таълим вазирлиги ; Ўзбекистон давлат жаҳон тиллари ун-ти : - Т. Chashma Print, 2013. . Информационная культура личности: учебно-методическое пособие. - М.: Либерия-Бибинформ, 2007.
21. <http://uz.infocom.uz/2016/03/30/axborot-olish-madaniyatini-shakllantirishdajitimoiy-meyorlarning-orni/>
22. Internet va axborot: xizmatlar, foydalanish asoslari. o'quv qo'llanma // Qudratxo'jayev Sh. Toshkent. Istiqlol, 2013